«T A S D I Q L A N G A N»
O'zbekiston Respublikasi QvaSX
Vazirligi Davlat veterinariya
Bosh boshqarmasi tomonidan
26 iyul 2013 yilda.
O'zR QvaSXV DVBB qoshidagi ITK
14.11.2012 yildagi № 47-sonli bayonnoma.

KETOPROFOL 1% VA KETOPROFOL 10% PREPARATLARINI
VETERINARIYA TIBBIYOTIDA QO'LLANISHI BO'YICHA YO'RIQNOMA

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1 «Ketoprofol 1% va 10%» (Ketoprofol 1%, 10%).
1.2 «Ketoprofol 1% va 10%» – rangsiz yoki sariq tusli shaffof eritmadir. 1 ml preparatning ichida mos holda 10 va 100 mg ketoprofen mavjud.
1.3 «Ketoprofol 1% va 10%» tegishli sig'imdagi qora shisha flakonlarda, 5, 10, 20, 50, 100, 200 va 250 ml dan qadoqlangan holda ishlab chiqariladi.
1.4 «Ketoprofol 1% va 10%» preparatini ehtiyotlik bilan (B ro'yxati bo'yicha), quruq, to'g'ri quyosh nurlaridan pana, bolalar yeta olmaydigan joyda, +4°C dan +25°C gacha haroratda saqlash kerak.
Preparatning ko'rsatilgan saqlash sharoitlariga rioya qilingan holda yaroqlilik muddati – ishlab chiqarilgan sanasidan 3 yil.

2. FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1 Preparatning tarkibiga kiruvchi ketoprofen og'riq bilan kechadigan o'tkir, o'tkirsimon va surunkali yallig'lanishlarni davolash uchun samaralidir.
Ketoprofenning ta'sir qilish mexanizmi araxidon kislotasining metabolizmi buzilishi orqali prostaglandinlar (siklooksigenaza-II va qisman siklooksigenaza-I) sintezining yo'q qilinishidan iborat. Terapevtik dozalarda ketoprofen yallig'lanishga qarshi, og'riqsizlantiruvchi, isitma tushiruvchi va antiendotoksik ta'sir ko'rsatadi.
2.2 Dori vositasini mushak ichiga kiritishda, ketoprofenning qon plazmasida maksimal konsentratsiyasi 30 daqiqadan keyin qayd etiladi. Ketoprofenning bioo'zlashuvchanligi, hayvonlarning turiga qarab, 85% dan 100% gacha o'zgarib turadi. Ketoprofen organizmdan asosan buyrak orqali chiqariladi.
2.3 «Ketoprofol 1% va 10%» organizmga ta'sir qilishi darajasiga ko'ra, GOST 12.1.007-76 bo'yicha 4-xavflilik sinfiga kiradi (kam xavfli moddalar); tavsiya etilgan dozalarda organizmga sezgirlikni oshiruvchi ta'sir ko'rsatmaydi.

3. QO'LLASH TARTIBI

3.1 Preparat:
- tayanch-harakat apparatining o'tkir va surunkali kasalliklarida (artritlar, tendovaginitlar, jarohatlar, umurtqa orasidagi disklar churrasi, tuyoqlarnig yuqumli shikastlanishi) yallig'lanish reaksiyalarining majmuiy davolanishida simptomatik vosita sifatida;
- har qanday kelib chiqishdagi og'riqni yo'q qilish (jarrohlikdan avvalgi va keyingi terapiya, sanchiq og'riqlar);
- nafas olish a'zolari kasalliklarini, MMA sindromini, mastitlarning o'tkir va surunkali shakllarini davolashda yordamchi vosita sifatida;
- isitma ko'tarilishi va holsiz holati bilan kechadigan kasalliklarda isitma tushiruvchi vosita sifatida qo'llanadi.
«Ketoprofol 1%» itlarga va mushuklarga qo'llash tavsiya etiladi.
«Ketoprofol 10%» yirik qoramol, otlar va cho'chqalarga qo'llash tavsiya etiladi.
3.2 Qo'llash tartibi va dozalari:
Itlar, mushuklar: teri ostiga, mushak ichiga, tomir ichiga hayvonning tana vazniga 2 mg/kg dozasida (ketoprofen bo'yicha), kuniga 1 marta, 1-5 kun davomida.
Otlar: tomir ichiga hayvonning tana vazniga 2,2 mg/kg dozasida (ketoprofen bo'yicha). Skelet-mushak funksiyalari va suyak-bo'g'im tizimlarining buzilishlarini davolashda har kuni, sutkada bir marta 3 – 5 kun davomida kiritiladi. Otlarda sanchiq og'riqlarni simptomatik davolashda «Ketoprofol 10%» bir marta kiritiladi. Odatda, bitta doza yetarli bo'ladi; preparatni har qanday qo'shimcha kiritish faqat hayvonni avvaldan klinik tekshirishdan keyin o'tkazilishi lozim.
Yirik qoramol: mushak ichiga, tomir ichiga hayvonning tana vazniga 3 mg/kg dozasida (ketoprofen bo'yicha), kuniga 1 marta, 1-5 kun davomida.
3.3 Nojo'ya ta'siri. Tavsiya etiladigan dozalarda «Ketoprofol 1% va 10%», odatda, hayvonlarda asoratlarni keltirib chiqarmaydi.
Suvsizlikdan qiynalgan hayvonlarga va qon bosimi pasaygan hayvonlarga preparatni ehtiyotlik bilan qo'llash kerak, chunki bu holda buyrak asoratlarining (nefrotoksikligining) xavfi oshadi.
3.4 Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar. Ketoprofen va preparatning boshqa komponentlariga allergiya, oshqozon va 12-barmoqli ichak yarasi, gemorragik sindrom, kuchli ifodalangan jigar va buyrak yetishmovchiligi, homiladorlik.
Preparatni 15 kundan yoshroq toychoqlarga qo'llash tavsiya etilmaydi.
3.5 Alohida ko'rsatmalar. «Ketoprofol 1% va 10%» boshqa nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlar, glyukokortikoidlar, antikoagulyantlar va diuretiklar bilan qo'llanishi tavsiya etilmaydi. Boshqa dori vositalar bilan bitta shpritsda aralashtirish mumkin emas.
Preparatni arteriya qon tomiri ichiga kiritmaslik lozim.
Hozirgi paytga kelib ketoprofenning otlarda homiladorlik o'tishiga ta'siri o'rganilmaganligi uchun – preparat homilador biyalarga qo'llanishi tavsiya etilmaydi.
3.6 Hayvonlarni go'sht olish uchun so'yish preparatni mushak ichiga kiritishdan kamida 4 sutka o'tganidan so'ng, tomir ichiga kiritilganidan keyin – kamida preparatni oxirgi qo'llashdan 1 sutka o'tganda ruxsat etiladi. Majburan hollarda ko'rsatilgan muddat tugashidan avval so'yilgan hayvonlarning go'shti hayvonlarni ovqatlantirish yoki go'sht-suyak unini ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin. Preparatni qo'llash davrida hayvonlardan olingan sut cheklashsiz ishlatilishi mumkin.

4. EHTIYOT CHORALARI

4.1 Preparat bilan barcha ishlarni maxsus kiyimdan (xalat, bosh kiyimi, rezina qo'lqop) foydalanib bajarish lozim. Preparat teriga yoki shilliq pardalarga tasodifan tekkan holda, uni darhol ko'p miqdordagi suv bilan yuvish kerak.
4.2 Ishlash paytida ichish, chekish va ovqat yeyish taqiqlanadi.
4.3 Ish tugaganidan keyin qo'llarini sovun va iliq suv bilan yaxshilab yuvish; qo'lqoplarini yuvish va quritish lozim.
4.4 Preparatning idishini oziq-ovqat maqsadlari uchun ishlatish taqiqlanadi.

5. E'TIROZLARNI BILDIRISH TARTIBI

5.1 Preparatni qo'llashdan keyin asoratlar aniqlangan holda, ushbu seriyadan foydalanish to'xtatiladi va bu haqda O'zbekiston Davlat veterinariya preparatlarining ilmiy-nazorat laboratoriyasiga (700178, Toshkent shahri, Qoraqamish 2/4 dahasi, A.Yunusov ko'chasi, 1a-uy) va preparatni ishlab chiqaruvchiga bildiriladi.
Ayni paytda O'zbekiston Davlat veterinariya preparatlarining ilmiy-nazorat laboratoriyasiga hayvonlarda asoratlarni yuzaga keltirgan preparat seriyasining namunalarini, asoratlarning batafsil ta'rifi bilan birga, yuboriladi.

Ishlab chiqaruvchi:
O'zbekiston-Buyuk Britaniya-Rossiya Qo'shma Korxonasi
«O'ZBIOKOMBINAT» MChJ
140532, O'zbekiston Respublikasi,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani,
«Namuna» QFY, O'rta - Charxin mahallasi,
Tel: +998 (95) 500 8161
Faks: +998 (66) 234 1134
www.biokombinat.uz
info@biokombinat.uz

TSh 64-00483044-64:2010

biveco®
biveco.com